

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DcS.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**NURMATOVA SHAXNOZA IBROXIMOVNA**

**MUSTAQIL TA'LIM ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR  
O'QITUVCHILARINING KASBIY METODIK TAYYORGARLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02– Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent–2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Nurmatova Shaxnoza Ibroximovna**

Mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining  
kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish ..... 3

**Нурматова Шахноза Иброхимовна**

Совершенствование профессионально-методической подготовки  
будущих учителей начальных классов на основе  
самостоятельного обучения ..... 25

**Nurmatova Shaxnoza Ibroximovna**

Improvement of professional methodical training of future  
elementary school teachers based on independent education ..... 49

**Эълон қилинган ишлар рўйхати**

**Список опубликованных работ**

**List of published works ..... 53**

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DcS.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**NURMATOVA SHAXNOZA IBROXIMOVNA**

**MUSTAQIL TA'LIM ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI  
O'QITUVCHILARINING KASBIY METODIK TAYYORGARLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02– Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent–2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7872 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Muhitdinova Nodira Mamalatipovna**  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Shodieva Matluba Juraevna,**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Kenjaeva Muhayyo Abdumurodovna,**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86; ye-mail: [tdpu\\_kengash@yedu.uz](mailto:tdpu_kengash@yedu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-75-87; faks: (99871) 276-80-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_»\_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**Z. Mamarajabova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

**R.G.Isyanov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

**Z. Mamarajabova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, p.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishning loyihalashtirish texnologiyalari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha yangi ta'lim konsepsiyasida "Ta'lim taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat" deb e'tirof qilingan. Bu esa o'qitish metodikasini takomillashtirish, talabalarning kasbiy va metodik tayyorgarligini ilg'or xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish, ta'lim jarayonini zamonaviy modellar asosida takomillashtirish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish, ta'lim jarayonini modellashtirish, loyihalashtirish, kasbiy sifatlarni va kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan, mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbga tayyorlashni xalqaro malaka talablari asosida olib borish, ta'lim sifatini xalqaro darajaga ko'tarish, modulli ta'limni yo'lga qo'yish, ijtimoiy kommunikativlikni faollashtirish, boshlang'ich sinf o'qituvchisining professionalligini aniqlash bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish, boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini pedagogik va axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda tashkil etish, kompetent mutaxassis va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning huquqiy me'yoriy asoslari yaratildi. "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" [3] muhim ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Natijada, mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775 son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimsha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy

hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda mustaqil ta’lim asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy va metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari B.S.Abdullayeva, N.I.Bayturaeva, M.G‘.Boratova, U.Sh.Begimqulov, Sh.O.Ibragimova, A.B.Raxmonov, G.Y.Karlibayeva, M.E.Mamarajabov, L.B.Axmedova, D.A.Xikmatullayeva; D.M.Malikova, N.G.Alavutdinova, G.A.Qayumova, N.I.Bayturayeva, I.B.Utayeva, M.T.Mirsoliyeva, I.R.Raxmonov, O‘.Q.Tolipov, D.A.Xikmatullayeva; mustaqil ta’limning tashkiliy va metodik asoslari S.A.Boltaboyev, N.A.Muslimov, R.R.Xusainov, S.I.Qulmamatov, O.A.Qo‘ysinov, Sh.R.Qo‘qonboevalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Ta’limning turli bosqichlarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari MDH davlatlari olimlari V.A.Adolf, O.M.Atlasova, V.V.Afanasyev, V.N.Batishev, I.M.Bogdanova, E.A.Vlasova, N.V.Gusinskiy, R.V.Demyanchuk, Y.B.Drobotenko, B.L.Yesipov, E.F.Zeyer, N.F.Koryakovsev, A.S.Linda, A.V.Nekrasov, P.I.Pidkasiy, N.A.Polovnikovalar tomonidan o‘rganilgan.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish muammolari Andrew J. Medina, Baker E., Denise M. Hoge., Keejoon Yoon, Carissa McCray, Chantea R. Wright, Lee, Susan E, Mareike Kunter, Martha Harrill Robinson, Mary K. Trehearn, Maura Jarnagin Bishop, Yarema, Sandra Lynn [124] ilmiy ishlarida asoslangan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, va ularning malakasini oshirish, elektron-ta’lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** mustaqil ta’lim asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

mustaqil ta’lim asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

mustaqil ta’lim asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini rivojlantirishning modelini takomillashtirish;

mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini rivojlantirishning samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent davlat pedagogika universiteti, Qashqadaryo davlat pedagogika universiteti, Buxoro davlat pedagogika universiteti larining 375 nafar talabalari jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish shakl, metod va vositalarini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan usullar majmui qo'llandi: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshq.).

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligining didaktik imkoniyatlari loyihalashtirish, konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ komponentlar uyg'un elementlarini yaxlit integratsiyalash, o'zini o'zi mustaqil rivojlantirish hamda shaxsiy va kasbiy sifatlarning didaktik aloqadorligini uzviy ta'minlash asosida aniqlashtirilgan;

mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish modeli o'zini-o'zi faollashtirish tamoyillariga ustuvorlik berish, o'quv, pedagogik va loyihalashtirish faoliyatini rivojlantirish hamda jarayonli va texnologik funksiyalar va o'quv jarayonini ketma-ket rejalashtirish, bashorat qilish va muayyan o'quv sharoitlariga qarab uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi "Vaqt kapitali" texnologiyasi, "Rotatsiya", "Yo'naltiruvchi topshiriq", "Ekspert baholash" metodlarining o'zaro to'ldirish imkoniyatlarini aniqlash hamda ta'lim subektlarining o'zaro ijodiy faol aloqadorligini izchil ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini rivojlantirish samaradorligi reproduktiv mustaqil, produktiv-o'zgaruvchan, kreativ- mustaqillik darajalarini didaktik tasniflash hamda mantiqiy-rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlarni kiritish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan;

mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishga oid nazariy asoslari o'rganilgan;

boshlang'ich talim yo`nalishi talabalari uchun "Ona tili-o'qitish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi" darsligi ishlab chiqilgan.[Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2024-yil 04-iyuldagi 11/3.1-son qaroriga asosan 254U-405 ro`yxatga olish raqami].

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish modeli, ijodiy kompetensiyalar, mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish tuzilmasi, kasbiy metodik tayyorgarlikning loyihalashtirish, konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ komponentlari o'rganilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida darslik, o'quv qo'llanma, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishning loyihali o'qitish texnologiyasi bosqichlari va metodik ta'minotidan foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflari asosida:

mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligining didaktik imkoniyatlari loyihalashtirish, konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ komponentlar uyg'un elementlarini yaxlit integratsiyalash, o'zini o'zi mustaqil rivojlantirish hamda shaxsiy va kasbiy sifatlarning didaktik aloqadorligini uzviy ta'minlash asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalar "Ona tili-o'qitish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 12-noyabrdagi 11-05-6472/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada, mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish imkoni kengaytirilgan;

mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish modeli o'zini-o'zi faollashtirish tamoyillariga ustuvorlik berish, o'quv, pedagogik va loyihalashtirish faoliyatini rivojlantirish hamda jarayonli va texnologik funksiyalar va o'quv jarayonini ketma-ket rejalashtirish, bashorat qilish va muayyan o'quv sharoitlariga qarab uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Ona tili- o'qitish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 12-noyabrdagi 11-05-6472/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada, mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish darajasining

oshirilishiga sharoit yaratilgan;

mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi "Vaqt kapitali" texnologiyasi, "Rotatsiya", "Yo'naltiruvchi topshiriq", "Exspert baholash" metodlarining o'zaro to'ldirish imkoniyatlarini aniqlash hamda ta'lim subektlarining o'zaro ijodiy faol aloqadorligini izchil ta'minlash asosida takomillashtirishga oid takliflar "Ona tili-o'qitish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 12-noyabrdagi 11-05-6472/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada, mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni takomillashtirish ko'lami kengaytirilgan;

mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini rivojlantirish samaradorligi reproduktiv mustaqil, produktiv-o'zgaruvchan, kreativ- mustaqillik darajalarini didaktik tasniflash hamda mantiqiy-rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlarni kiritish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Ona tili- o'qitish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 12-noyabrdagi 11-05-6472/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada, mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligining takomillashganligini baholash samaradorligini oshirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 123 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi masalalari o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning “ **Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari, mustaqil ta‘lim asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini rivojlantirish vositasi sifatida yoritilgan.

Dissertatsiya doirasida amalga oshirilgan ilmiy manbalar tahlili natijalari mohiyatiga ko‘ra mustaqil ish bilim olish faoliyatini tashkil etish, boshqarish vositasi va talabalarni mustaqil bilim olish faoliyatiga jalb etish vositasi ekanligini ko‘rsatdi. Biz “mustaqil ish” tushunchasining muhim ko‘rsatkichlari sifatida quyidagi xususiyatlarini ajratib ko‘rsatamiz: topshiriqning mavjudligi; o‘qituvchining vazifada bevosita ishtirok etmasligi; topshiriq uchun maxsus taqdim etilgan vaqtning mavjudligi; o‘qituvchining talabalar bilim olish faoliyatini bilvosita boshqarishi.

Mutaxassislarining fikricha, “mustaqil bilim olish faoliyati” tashqi yordamlarsiz amalga oshiriladi. Ushbu faoliyat – talabaning o‘zi tomonidan nazorat qilinadigan faoliyatdir. Subyektga o‘z oldiga vazifa qo‘yish va uni bajarish vaqtini belgilash imkoniyatini bergan holda, biz “muayyan maqsadlarni qo‘ya bilish va ularga o‘z mehnati bilan erisha olishida ifodalangan shaxsning yetakchi fazilatlaridan biri” bo‘lgan “mustaqillik” tushunchasining ta‘rifiga ega bo‘lamiz. Ushbu xulosa quyidagilar bilan asoslanadi: ta‘lim tushunchasining kengayishi va uning farqlari an‘anaviy va “nopedagogik” ta‘limga bo‘linadi. Bunda ta‘lim sifatidagi pedagogik muloqot shakllari o‘z samaradorligini yo‘qotadi, ta‘lim esa, tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki yangi bilimlarni, yangi ma‘lumotlarni olish uchun axborotni qidirish va uni qayta ishlashni o‘rganishga borib taqaladi; mustaqillik muammosiga nisbatan yangi texnologik yondashuvlar.

Mustaqil ish jarayonida mustaqil faoliyatning xususiyatidan kelib chiqqan holda, quyidagi mustaqil bilim olish darajasini ajratib ko‘rsatish mumkin: reproduktiv mustaqillik (asosiy o‘rganish harakatlari, operatsiyalar va harakatlarning namunalarini o‘zlashtirish, ularni shu kabi materialga ko‘chirishni o‘rganish); produktiv-o‘zgaruvchan mustaqillik (aqliy tanlash va amalda bir bilim muammoni hal qilish uchun zarur bo‘lgan usullari, texnikasi va ko‘nikmalarini qayta qobiliyati); kreativ mustaqillik (talaba tajribasida ilgari uchramagan bilim olish harakatlarini yaratish uchun bilim olish faoliyatining o‘zlashtirilgan “texnikasi”dan o‘rganilganlardan foydalana olish); insonning tirik faoliyatida bunday aniq darajalarga bo‘lishning imkoni yo‘q, shuning uchun faqat u yoki bu darajadagi ustunlik haqida gapirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot vazifalarini samarali amalga oshirish uchun dissertatsiyamiz muammosi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili bu borada bir qancha ishlar amalga oshirilganligini ko‘rsatdi.

D.R.Xusainov e‘tirof etishicha har bir pedagog faqatgina o‘zining fanini asosiy deb hisoblamasdan, talabaning mustaqil ta‘limga ajratilgan vaqti o‘quv rejadagi barcha fanlar uchun ajratilganligini esdan chiqarmasligi kerak, aks holda talabalarga

keragidan ortiq berilgan vazifa mustaqil ta'limdan kuzatilgan ijobiy natija o'rniga, aksincha salbiy natijaga olib kelishi mumkin.

S.A.Boltaboyev ta'kidlashicha, talablarga yuqori darajadagi bilimni o'quv auditoriyasidagi mashg'ulotlar to'liq bera olmaydi. Buni amalga oshirishda mustaqil o'quv faoliyati to'ldiruvchi rivojlantiruvchi vazifasini bajaradi. Bundan tashqari mustaqil faoliyat muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni amalga oshirishga xizmat qiladi, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya yoki auditoriyadan tashqarida bajariladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib, mustaqil ish turlari bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqiladi. Mustaqil ishlarni bajarish va mustaqil ta'limning ijobiy xususiyatlari olimlardan malakalarini shakllantirish metodikasi, O'.N.Sultonovning fizikadan talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish metodikasi, Sh.Yunusovning talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirish, Z.Nishonova, J.Tolipova va N.Xalilovlarning mustaqil ta'lim shakllari haqidagi tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. Pedagog olim S.Matjonovning tadqiqot ishi talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishga bag'ishlangan bo'lib, unda darslarda talabalarning og'zaki va yozma ijodiy ishlarini tashkil etish masalalari tadqiq qilingan. Zero, ma'naviy barkamol avlodni shakllantirishda ijodiy ishlar va mustaqil faoliyat yuritish o'z-o'zidan erkin tafakkurni talab qiladi. Mustaqil tafakkur, o'z nuqtai nazariga ega bo'lmagan talaba ijodkor bo'la olmaydi, mustaqil faoliyat yurita olmaydi. Oliy ta'lim tizimida. O.Qo'ysinov "Kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bo'lajak bakalavr o'qituvchilarda mustaqil bilim olishga qiziqish va qobiliyatni pedagogik madaniyatni takomillashtirishga oid ilmiy ishlarida mustaqil bilim olish usullariga to'xtalib o'tgan".

N.A.Muslimov ta'kidlashicha, mustaqil ta'lim olish yetuk mutaxassis bo'lib yetishishning muhim omili hisoblanadi. Bu, ayniqsa, kasbiy tayyorgarlik tizimida yaqqol namoyon bo'ladi.

M.Malikova dissertatsiya ishida o'quvchilarni mutolaa madaniyatini rivojlantirishda ma'naviy qadriyat, intellektual yondashuv pozitiv dunyoqarash shakllarini ochib berilgan.

G.A.Qayumova tadqiqotida talabalarni mustaqil ishlashida raqamli ta'lim kompetensiyasini rivojlantirish yakka holda qiziqishlari ijodiy qobiliyatlari o'zini -o'zi anglash komponentlari mantiqiy topshiriqlar produktiv darajasida transformatsiyalash ko'rsatilgan. Mustaqil ishlah kompetensiyalari kommunikativ (muloqatmandlik) kompetensiya, raqamli kompetensiya, adaptiv kompetensiyalardan tashkil qilingan.

N.I.Bayturaevaning fikricha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mustaqil ta'lim faoliyatida ijodiy kompetentlikni amalga oshirish tizimi turli xil munosabatlar ichki va tashqi an'analari ijodiy fikrlash ketma - ketligi ta'kidlab o'tilgan.

L.B.Axmedova bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning didaktik metodik kompetentligini monologik va dialogik nutqini o'stirish borasida so'z yuritgan . bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning didaktik metodik kompetentligini rivojlantirish modeli intensiv –ijodkorlik ,muloqot yuritish kompetensiyasi ,adabiy talaffuz malakasini korreksiyalash asosida ish olib borgan.

M.G.Alavutdinova ona tili darslarida o'quvchilarni ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini yaratish maqsad qilib olingan. Shu jumladan ona tili darslarida mustaqil ijodiy matn tuzish ko'nikmalari ijodiy fikrlashni mustahkamlashda yozma ishlarga bosqichli tayyorgarlik ko'rish xususiyatlari ochib berilgan.

N.B.Utaeva talabalarning mustaqil ta'lim olish jarayonida grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan Talabalarda Grammatik kompetensiyalarni umumlashtirish va o'z –o'zini rivojlantirishning qiymat- semantik usulidan foydanishni aytib o'tgan. Tadqiqotning maqsadi Grammatik kompetensiyalar orqali yozma matnlarni sintaktik va didaktik imkoniyatlarini pedagogik jarayonni rivojlantirish iborat.

Ilmiy manbalarning tahlili mustaqil ta'limni tashkil qilish muammosi MDH va xorij olimlari tadqiqot ishlarining ham bosh ob'ekti bo'lganligini ko'rsatdi.

F.A.Disterveg talabalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga doir tadqiqotlari natijasida shuni ta'kidlaganki, "Rivojlanish va ta'lim hech bir insonga berilishi va yetkazilishi mumkin emas. Har kim bunga shaxsiy faoliyati bilan erishishi kerak. Inson o'zining mustaqil yo'l bilan egallamagani – uniki hisoblanmaydi". Muallifning fikricha, insonning o'zi tomonidan mustaqil egallangan bilim uning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu tarzda, talabalarning bilim olish mustaqilligi mohiyatiga turli yondashuvlarning tahlili ushbu tushunchaning aniq ta'rifini ochib bermagan. Bu bilim olish jarayonining tarkibiy qismlari sifatida fikrlash va faoliyat o'rtasidagi munosabatlarning murakkabligi va noaniqligidan kelib chiqadi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, tadqiqotimiz maqsadlariga javob beradigan talabalarning bilim olish mustaqilligining quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin: o'quv faoliyati usullarini o'zlashtirishga bo'lgan ustuvor yo'nalish; mustaqil ishlarning tuzilishi va talabalar mustaqil faoliyatini boshqarishni belgilovchi o'rganish vazifalarini belgilash; ta'lim maxsulot shaxsiy tabiati, mustaqil bilim faoliyatini rivojlantirish yakuniy maqsadi u mustaqil faoliyat maqsadini belgilash uchun ega bo'lgan darajaga yetib, uning mavzu sifatida talaba shakllantirish, deb aslida bildirdi, muammoni hal qilish uchun bilim va faoliyat usullarini yangilash, rejalashtirish va uning harakatlarini rostlash mumkin, erishilgan natijani qo'yilgan maqsadga bog'lilash, ya'ni mustaqil ta'lim faoliyatini amalga oshirish.

Mazkur bobda talabalarning mustaqil faoliyati quyidagi belgilarga ega ekanligi ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan: mustaqil fikr yuritish va unga intilish; har qanday shart-sharoitda yoki vaziyatlarda bajariladigan ish obyektini aniqlay olish; yangi vazifalarni hal etishda o'z yondashuvini amalga oshira olish; egallanishi lozim bo'lgan bilimlarni nafaqat tushunishni, o'rganishni istash, balki ushbu bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishning tez, samarali usullarini izlab topish; bajarilgan ishlarni tahlil qilishda tanqidiy yondashuv; o'z g'oya va qarorlarining erkinligi.

Yuqoridagi fikr mulohazalarni umumlashtirib, mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish yo'nalishlarini belgiladik (1-jadvalga qarang).

**Mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish yo'nalishlari**

<b>Komponent</b>	<b>Mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish tendensiyalari</b>	<b>Mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish funksiyalari</b>	<b>Mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonini tadqiq qilishga yondashuvlar</b>	<b>Mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishning o'quv-metodik vazifalari</b>
<b>Boshlang'ich ta'limni o'qitish mazmuni</b>	Fundamentallashtirish	Boshlang'ich ta'limni davom ettirish, o'zlashtirishning didaktik birliklarni kengaytirish ushuni asoslar yaratish	Tizimli-strukturaviy, boshlang'ich ta'limga doir fanlar, integrativ	Kasbiy va metodik bilimlarni shakllantirish
	Kasbiy va metodik bilimlarning amaliy aspektini kuchaytirish	Nazariy bilimlarni aniqlashtirish, ta'lim va hayot o'rtasidagi aloqani o'rnatish	Ijtimoiy, madaniy, mintaqaviy va boshqalar	Kasbiy va metodik ko'nikmalarni shakllantirish
<b>Protsessual-faoliyat komponenti</b>	Ta'lim mazmuni va jarayonini standartlashtirish	Mazmun va faoliyatning integratsiyasi, tartibga solish va nazorat qiluvchi	tartibga soluvchi, tizimli-integrativ, faoliyat, shakllantiruvchi	Kasbiy va metodik tayyorgarligini takomillashtirish
	Mazmun va o'quv jarayonining variativligi	Fanni o'qitish metodikasiga turli yondashuvlarni amalga oshirish	tabaqalashtirilgan, shaxsga yo'naltirilgan, individual	Darajali va profilli tabaqalashtirish, individuallashtirish
<b>Tashkiliy va metodik komponent</b>	Boshlang'ich ta'limni texnologiyalashtirish	Faoliyatni algoritmlashtirish, bashorat qilish funksiyasi, o'rganishni ratsionalizatsiya qilish	Faoliyat-protsessual, funksional	Boshlang'ich ta'limni o'qitish texnologiyalarini loyihalashtirish va amalga oshirish malakasini rivojlantirish
	Fanni shaxsga yo'naltirilgan tarzda o'qitish	Rivojlantiruvchi funktsiya, assotsiativ-refleksiv va boshqa funktsiyalar	Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, gumanistik	insonparvarlashtirish, individuallashtirish
<b>Tayanch komponenti</b>	Kasbiy va metodik bilimlarni shakllantirishning instrumental yo'naltirilganligi	Tahsil oluvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish	Shakllantiruvchi, o'zgartiruvchi, rivojlantiruvchi	Ta'limning qadriyat-motivatsion sohasini, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish
	Shakllantiriladigan kasbiy va metodik tayyorgarligini takomillashtirishning yo'naltirilganligi	Shaxsning qadriyat-emotsional sohasini rivojlantirish	Rivojlantiruvchi	insonparvarlashtirish, individuallashtirish

Dissertatsiyamiz doirasida mustaqil ta'lim olish jarayonini faollashtirish uchun talabalarda quyidagi xususiyatlarni shakllantirish zarurligi asoslangan: mustaqil ta'lim olishga ishtiyoq (motiv); mustaqil ta'lim olish malaka va ko'nikmalari; mustaqil ta'lim olish layoqati.

Amalga oshirilgan tahlilning maqsadi mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni aniqlash va o'qituvchining kasbiy-metodik tayyorgarligini o'z-o'zini tashkil etish nazariyasi nuqtai nazaridan talqin qilishdan iborat.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib tadqiqotimiz doirasida mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishda o'zini o'zi rivojlantirishning mazmun mohiyati va imkoniyatlarini batafsil o'rgandik.

O'qituvchi kasbiy mas'uliyatining oshishi va jamiyatdagi rolining o'zgarishi ularni ta'lim jarayonidagi jadal o'zgarishlarga tez moslashish, o'ta faollik, doimiy o'zini o'zi rivojlantirishi va mustaqil bilim olishga tayyor bo'lish, o'qitishning zamonaviy yondashuvlari va texnologiyalarini o'zlashtirib borish hamda ularni samarali qo'llay olish sifatlariga ega bo'lishlarini taqozo qiladi. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda ta'lim jarayonida o'zini o'zi rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaralib, maktab o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy malakasini oshirish tizimida ularning kasbiy va metodik kompetentligini rivojlantirishda o'zini o'zi rivojlantirish tizimining ahamiyati ortib bormoqda.

O'z-o'zini rivojlantirish – bu insonning o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishga, kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan o'z ustida muntazam ishlashi. Ushbu yondashuv tufayli inson o'z bilim va ko'nikmalarini yaxshilaydi. O'z-o'zini rivojlantirish jarayoni vaqt oralig'iga ega emas va ko'pincha umr bo'yi davom etadi.

Mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishda o'zini o'zi rivojlantirishning mantiqiy va mazmun strukturasi quyidagilarni o'z ichiga oldi: o'zini o'zi mustaqil tashkil etishning sinergetik konsepsiyasini tahlil qilish, uning murakkab tashkil topgan tizimlarning rivojlanishi to'g'risida zamonaviy ilmiy g'oyalarni shakllantirishdagi roli; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'zini o'zi rivojlantirishni tashkil etishini tahlil qilish, uning mustaqil ta'lim jarayonlarining rivojlanishi haqidagi zamonaviy tasavvurlarning shakllanishidagi roli; o'qitish metodikasining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish asosida ta'lim jarayonida bilimlarni o'zini mustaqil tashkil etish jarayonlari va faoliyat usullarini tadqiq qilish.

Mazkur bobda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerakligi aniqlashtirilgan: o'zining kasbiy o'sishi, shu jumladan o'z-o'zini rivojlanish yo'lini aniqlash; o'zining ta'lim faoliyatini tahlil qilish va baholash, modifikatsiyani talab qiladigan yo'nalishlarni aniqlash; kasbiy rivojlanishida AKT muhitidan foydalanish; zaruriyat bo'lganda faoliyatida chet tilidan foydalanish.

Dissertatsiyaning **“Mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf**

**o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishning metodik tizimi, mustaqil ta‘lim asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish modeli, mustaqil ta‘lim asosida “Ona tili o‘qitish metodikasi”fanidan bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi batafsil keltirilgan.

Dissertatsiyamiz doirasida amalga oshirilgan tahlil natijalarini umumlashtirish bizga tadqiqotimizning bosh g‘oyasi mustaqil ta‘lim asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligining komponentlarini aniqlashtirish imkonini berdi: loyihalashtirish, konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ.


Konstruktiv komponent pedagogga o‘quv materialining mazmunini kompozitsion qurish sohasidagi talablarni aks ettiradi: O‘rganilayotgan mavzu kontekstida darsning ratsional strukturasi tanlash malakasi. Dars materialini zarur materialni saralab olish bilan aniq rejalashtirish, undagi asosiy va muhim narsalarni ajratib ko‘rsatish, o‘rganilayotgan materialni oddiydan murakkabgacha taqsimlash, namoyish eksperimentining o‘rni va xarakterini aniqlash, vazifalar va mashqlarni ularning murakkabligining oshib borishi tartibida tartibga solish malakasi. Darsda talabalarning ishini o‘quv ishlarining eng ratsional turlarini tanlash bilan rejalashtirish, tahsil oluvchilarning turli guruhlarining o‘quv faoliyatining mohiyatini aniqlash, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni oldindan ko‘ra bilish (bashorat qila olish) va darsda tahsil oluvchilarning mustaqillik darajasini oshirish malakasi. O‘z ishini rejalashtirish, vaqtni ratsional taqsimlash malakasi bosqichdan bosqichga o‘tishni rejalashtirish, yangi materialni egallash bo‘yicha tahsil oluvchilar ishini boshqarish xarakterini aniqlash, dars davomida mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni oldinda ko‘ra bilish (bashorat qilish) malakasi kiradi.

Tashkiliy komponent ta'lim maqsadlarini amalga oshirish vositalari, shakllari va metodlariga qo‘yiladigan talablarni aks ettiradi, yetkazish berish jarayonida o‘quv axborotini tashkil qilishni nazarda tutadi.

O‘quv axborotini o‘quv jarayonini amalga oshirish shartlariga muvofiq taqdim etish va tahsil oluvchilarda darslik, ma'lumotnomalar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish. O‘qitish metodlarining xilma-xilligidan foydalanish qobiliyati. O‘quvchilarni o‘quv faoliyatiga jalb qilishning turli shakllaridan foydalanish va ularni o‘z faoliyatini o‘zi tashkil etishga o‘rgatish malakasi. Tahsil oluvchilarning jamoada o‘zaro faoliyatini tashkil etish malakasi. Vaqtni optimal ravishda taqsimlab, o‘z faoliyatini tashkil qilish malakasi.

Kommunikativ komponent o‘qitish maqsadlarini osonroq va tezroq amalga oshirish imkonini beradigan qulay psixologik-pedagogik muhit (sharoit)ni yaratadi, maqsadga erishish metodlari bilan qurollantiradi va "muvaffaqiyat vaziyati" sharoitlari yaratadi. Ushbu komponent tahsil oluvchilarga bilvosita ta'sir o‘tkazish kanallaridan foydalangan holda ta'lim jarayoni sub'ektlari o‘rtasida pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish va rivojlantirish malakasini ifodalaydi.

Shunga ko‘ra tadqiqotimiz doirasida mustaqil ta‘lim asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish modeli**

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish vositasi sifatida muammoli ta'limni amalga oshirishning asosiy tamoyillari sifatida quyidagicha aniqlandi: muammoli ta'limning ijtimoiy-madaniy muvofiqligi va amaliyotga yo'naltirilgan muammoli faoliyatni o'rganish. Ushbu tamoyillar zamonaviy jamiyatida shakllanayotgan ta'limni rivojlantirishdagi vaziyatni to'liqroq hisobga olishga imkon beradi: birinchidan, bo'lajak o'qituvchining ta'lim faoliyati va bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentliki amalga oshiriladigan ijtimoiy-madaniy sharoitlar, jumladan, makro va mikro muhitning xususiyatlari, madaniy va tarixiy an'analari, mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari; ikkinchidan, idrok etish asosida maxsus va psixologik-pedagogik bilimlarni sintez qilishni amalga oshiruvchi zamonaviy fanning rivojlanishini insoniyatning global muammolari, ijtimoiy va ta'lim tizimlarini qiyosiy tahlil qilish; uchinchidan, bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligining mohiyatini va tashkiliy muhitni shakllantirish qoidalarini belgilash; to'rtinchidan, oliy ta'limning xususiyatlari, uning qarama-qarshiliklari va muammolari, rivojlanish tendentsiyalari, ta'limdagi an'anaviy va innovatsionlik nisbati; beshinchidan, oliy ta'limdagi ta'lim jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy va guruh xususiyatlari, uni rivojlantirishning ijtimoiy holati, madaniy va qadriyatlarning rivojlanish xususiyatlari, ijtimoiylashuv va ijtimoiy-psixologik moslashish jarayonlari, kasbiy, shaxsiy rivojlanish bosqichlarini rivojlanishi.

Mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish modelini ishlab chiqish boshqarish va o'zini o'zi boshqarishni ta'minlaydigan fundamental kasbiy va metodik, psixologik-pedagogik bilimlarning mazmunini yaxlit taqdim etishni, talabalarda boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan fanlarning tarkibiy qismidan pedagogik muammolarni yaxlit o'rganishning metodologik, nazariy va texnologik vositasi sifatida foydalanish ehtiyojlari va malakalarini shakllantirishni, bilish va o'qituvchilik faoliyatida qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishni talab qiladi.

Mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish modelini takomillashtirish asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining mustaqil ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishning maxsus strategiyasi sifatida o'zini o'zi tashkil etishning bazaviy fanning rivojlanish tendentsiyalari va shakllanayotgan uzluksiz ta'lim tizimi sharoitida ta'lim amaliyotining rivojlanish qonuniyatlariga adekvat (mos keladigan) mexanizm yaratishga erishildi.

Mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish modeli o'quv jarayoni davomida talabalarning umumiy ta'lim, bazaviy kasbiy-metodik bilimlar, pedagogik amaliyotlar jarayonida psixologik-pedagogik va kasbiy malakalarni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladi. Model bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Modellashtirish tizim sifatidagi mustaqil ta'lim jarayonida 4 ta quyi tizim-blokni ajratish imkonini beradi: maqsadli blok; jarayonli-faoliyat bloki; loyihaviy-texnologik blok; natijaviy blok.

MAQSADLI BLOK mustaqil ta'limni amalga oshirish bilan bog'liq kontseptual g'oyalari, tamoyillar, qoidalarini o'z ichiga oladi.

Mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishning tizimni tashkil etuvchi komponenti uning maqsadi bo'lib, u ideal yoki xayolan tasavvur qilinadigan natija sifatida va talaba erishmoqchi bo'lgan yutuqlar darajasi sifatida belgilanadi (boshlang'ich sinf o'qituvchisining kalit kompetentliklariga erishish, uning zamonaviy maktabda mahsuldor ishlashga tayyorligi).

Mustaqil ta'lim asosida o'zini o'zi tashkil etish konsepsiyasi quyidagi samaradorlikka erishish imkonini beradi: a) Kasbiy va metodik tayyorgarlikning birligini, o'zaro bog'liqligini, yaxlitligini, uning rivojlanish mexanizmlarini tushunish, kasbiy va metodik tayyorgarlikning ilmiy manzarasini shakllantirish. b) Kasbiy va metodik tayyorgarlikni takomillashtirishni tadqiq qilish metodlari, pedagogik tizimlar va o'qitish texnologiyalarini qurish va boshqarish usullari bilan qurollantirish. v) Kasbiy va metodik tayyorgarlikni takomillashtirish samaradorligining sifatini oshirish.

**METODOLOGIK-TEXNOLOGIK BLOK.** Modelning metodologik-texnologik bloki mustaqil ta'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishga yo'naltirilgan o'qitish, o'z loyiha texnologiyalarini o'rganish va qo'llash ob'ekti sifatida taqdim etadi. Ushbu blok eng optimal (maqbul), vaziyatlarga tegishli (adekvat) bo'lgan samarali metodik usullar tanlovini yaratish uchun o'qitishning metodik vositalari, usullari va metodlari zahirasini yaratish va to'plashga xizmat qiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodologik faoliyatini va uni o'qitish texnologiyalarini egallashni o'z ichiga oladi. Tanlangan mutaxassislik bo'yicha davlat standarti asosida qurilgan mustaqil ta'limning o'quv dasturi ushbu blokni boshqarish funksiyasini bajaradi. Talabalarning metodologik faoliyati quyidagi malakalarni o'z ichiga oladi: o'quv jarayonini rejalashtirish va bashorat qilish, mavzular va darslarni rejalashtirish, dasturlarni muayyan o'quv sharoitlariga qarab strukturalashtirish va moslashtirish.

